



## 2020-yil yanvar oyida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi

- **241,9 mlrd. so'm**

Yirik qurilish tashkilotlari ulushi

- **8,1 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

- **75,7 %**

Norasmiy sektor ulushi - **16,2 %**

Joriy yilning yanvar oyida Surxondaryo viloyatida jami **241,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **101,6 %** ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 19,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 8,1 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 72,3 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 75,7 % yoki 183,1 mlrd. so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,0 % ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 16,2 % yoki 39,1 mlrd. so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil etdi.

### Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi - **19,7 mlrd. so'm**

o'sish sur'ati - **72,3 %**

### Kichik korxona va mikrofirmalar

hajmi - **183,1 mlrd. so'm**


o'sish sur'ati - **106,0 %**

### Norasmiy sektor

hajmi - **39,1 mlrd. so'm**

o'sish sur'ati - **102,9 %**

## Yanvar oyida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 72,4 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichiga nisbatan 5,7 % punktga kamaydi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 20,9 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichiga nisbatan 5,5 % punktga ko'paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 6,7 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga ko'paydi.



## Yanvar oyida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- ▣ Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- ▣ Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- ▣ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 0,1 % ni tashkil etdi.

Bunda kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 77,6 % (1,1 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 22,3 % ni tashkil etdi.

## 2020-yil yanvar oyida qurilish ishlarning faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 32,7 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 19,0 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi 67,3 % ni (19,0 % punktga ko'payish) tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 32,9 % punktga kamaydi va 19,2 % ni tashkil etdi.

Qolgan 80,8 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 32,9 % punktga ko'paydi.

**2020-yil yanvar oyida hududlar kesimida  
qurilish ishlari**

	Jami		shu jumladan:	
			hududiy yirik qurilish tashkilotlari	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>241,9</b>	<b>101,6</b>	<b>19,7</b>	<b>72,3</b>
Termiz sh.	76,0	105,0	0,2	30,9
tumanlar:				
Oltinsoy	3,7	85,9	-	-
Angor	9,3	102,0	-	-
Boysun	19,5	104,6	-	-
Denov	22,9	104,0	-	-
Jarqo'rg'on	16,2	103,8	-	-
Qiziriq	8,8	100,5	0,2	53,5
Qumqo'rg'on	9,6	68,6	3,1	38,4
Muzrabot	8,9	104,7	-	-
Sariosiyo	26,3	94,0	11,5	71,2
Termiz	15,8	104,8	0,3	106,3
Uzun	8,3	147,1	3,5	-
Sherobod	10,0	105,9	0,9	48,7
Sho'rchi	6,6	101,5	-	-

## 2020-yil yanvar oyida qurilish ishlari bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari tarkibi




Joriy davrda jami qurilish ishlaring katta qismi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 183,1 mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 75,7 %) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,0 % ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 19,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 8,1 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 72,3 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlaring 16,2 % yoki 39,1 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari (% da)



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Angor tumanida qurilish hajmining 87,2 %, Termiz tumanida 88,5 %, Boysun tumanida 82,5 % hamda Termiz shahrida 93,3 % ni tashkil qildi.

## **2020-yil yanvar oyida qurilish ishlaringin mulkchilik shakllari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan % da )**




Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 4,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,7 % ni tashkil qildi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 237,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 98,3 % ni tashkil qildi.




## Hududlarda qurilish ishlaringin o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Qurilish ishlaringin hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Uzun tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 147,1 % ni tashkil etdi. Bu tumandagi qurilish ishlaringin asosiy qismi yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlaringin 42,3 % ini tashkil qiladi.



## Yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Termiz shahriga 31,4 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sariosiyo tumaniga 10,9 %, Denov tumaniga 9,5 % va Boysun tumaniga 8,1 % ga to'g'ri keldi.



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni:

**(76) 223-07-15  
(71)230-85-81**